




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**



**“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI
O‘QITISH METODIKASINING
DOLZARB MASALALARI”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI



Digital object
identifier



Google
Scholar



OpenAIRE

Toshkent-2026

**“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH
METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Toshkent, O‘zbekiston

2026-yil 17-aprel

**“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH
METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



**O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING
DOLZARB MASALALARI**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent, O‘zbekiston

COLLECTION OF MATERIALS
from the republican scientific and practical conference
**CURRENT ISSUES OF UZBEK LITERATURE AND ITS
TEACHING METHODOLOGY**

Tashkent, Uzbekistan

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
республиканская научно-практической конференции
**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЛИТЕРАТУРЫ
УЗБЕКИСТАНА И МЕТОДИКИ ЕЕ ПРЕПОДАВАНИЯ**

Ташкент, Узбекистан

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



“O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari” / –Toshkent. – 2026. – 538 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasidan tomonidan “O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari” mavzusida 2026-yil 17-aprelda o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan. Maqola va tezislarning mazmuni, uslubi va imlosiga, keltirilgan ma’lumotlarga mualliflarning o‘zlari mas’ul.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriyat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19810057>

Mas’ul muharrir:

Sohiba Umarova,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:

Quvonch Mamiraliyev

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Husan Maqsudov

katta o‘qituvchi

Tahrir hay’ati:

N.Jumaxo‘ja – filologiya fanlari doktori, professor

Ro‘za Niyozmetova – pedagogika fanlari doktori, professor

Marg‘uba Abdullayeva – filologiya fanlari doktori, professor

Tozagul Matyoqubova – filologiya fanlari doktori, dotsent

Saodat Qambarova – pedagogika fanlari doktori, professor v.b.

Hoshimjon Ahmedov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Shoira Isayeva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Iroda Ishonxonova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Oqila To‘raqulova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Mahfuza To‘ychiyeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Muhayyo Yo‘ldosheva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Matluba Jabborova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Surayyo Inomjonova – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Nasiba Jo‘raqulova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Mahliyo Eliboyeva – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Sevinch Yoqubova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Oysuluv Musurmonqulova – katta o‘qituvchi

Dilafro‘z Nazarova – katta o‘qituvchi

O‘tkir Yo‘ldoshev – katta o‘qituvchi

Dilnavoz Boyzoqova – o‘qituvchi

© *Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2026*

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



2. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Foy, P., & Drucker, K. T. (2012). PIRLS 2011. International Results in Reading. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College. – P. 11
3. Goodman, K. S. (1967). Reading: A psycholinguistic guessing game. Journal of the Reading Specialist, 6(4), 126-135.
4. Rumelhart, D. E. (1977). Toward an interactive model of reading. In S. Dornic (Ed.), Attention and performance VI (pp. 573-603). Hillsdale, NJ: Erlbaum.
5. Выготский, Л. С. (1982). Мышление и речь. Собрание сочинений: В 6-ти т. Т. 2. – М.: Педагогика. – С. 295-310.]

“AMERIKA FOJIASI” ROMANIDA BADIY DETALLAR TIZIMI

Normatov Rixsimurod Qo‘chqor o‘g‘li,

Abdulla Qodiriy nomidagi

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada “Amerika fojiasi” romanidagi kishan, qayiq, avtomobil va billur soqqa kabi ramzlarning funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor Klayd Grifits obrazining beqaror tabiati va uning ijtimoiy muhit kishanlari orasidagi ziddiyatiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. Ramziy obrazlar tizimi, psixologik instabillik, qahramon fojiasi, ijtimoiy tabaqalanish, determinizm.

“Amerika fojiyasi” – inson irodasining ijtimoiy bosim qarshisida naqadar mo‘rt ekanligini ko‘rsatuvchi monumental asardir. Teodor Drayzer ramzlar orqali Klayd Grifitsning ichki kechinmalarini va uni o‘rab turgan jamiyatning ko‘rinmas devorlarini (kishanlarini) mahorat bilan tasvirlaydi.

Kishan ramzi: ijtimoiy va ma‘naviy asorat. Romanda kishan ramzi ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: moddiy (qamoqxona) va ma‘naviy (ijtimoiy kelib chiqish).

Ijtimoiy kishanlar: Klayd o‘zining kambag‘al o‘tmishidan, oilasining diniy mutaasibligidan qochishga urinadi. Biroq, bu o‘tmish uning oyog‘iga bog‘langan ko‘rinmas kishan kabi uni doim pastga tortadi. U qanchalik yuqori tabaqaga intilmasin, o‘zligidan qutula olmaydi. Asar yakunidagi qamoqxona va “O‘lim kamerasi” epizodlari Klaydning orzulari butunlay kishanlanganini anglatadi. Bu yerda kishan – “Amerika orzusi”ga erishish yo‘lidagi xato qadamning muqarrar natijasidir.

2. KLAYD GRIFITS: BEQAROR TABIAT VA PSIXOLOGIK LABILLIK. Klayd – Drayzer talqinida “irodasiz qurbon”. Uning tabiati o‘zgaruvchan, ta’sirchan va qat’iyatsizdir.

Instabillik ramzi: Klaydning beqarorligi uning ikki ayol (Roberta va Sondra) hamda ikki dunyo (qashshoqlik va hashamat) o‘rtasidagi

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



muvozanatni yo‘qotishida ko‘rinadi. U o‘z taqdirini boshqaruvchi subyekt emas, balki vaziyatlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘lgan obyektidir. Adabiyotshunoslikda Klaydning bu sifati “temperamental beqarorlik” deb ataladi. U yuksaklikka intiladi, ammo bu intilish axloqiy prinsiplarga emas, balki o‘tkinchi ehtirolarga tayanadi.

3. QAYIQ VA AVTOMOBIL: DINAMIK VA STATIK FOJIA. Avtomobil: Klaydning ijtimoiy pillapoyalardan tez ko‘tarilish istagi va bu yo‘ldagi mas‘uliyatsizligini anglatuvchi dinamik ramz. Avtomobil halokati uning hayotidagi barcha fojialarning muqaddimasidir.

Qayiq: Klaydning beqaror tabiatini jismoniy aks ettiruvchi vosita. Qayiqning suv ustidagi tebranishi – Klaydning Roberta hayotiga suiqasd qilish yoki qilmaslik borasidagi ruhiy azoblari ichki konflikti va qat’iyatsizligining metaforasidir. Masalan, Katta Mushgir ko‘lidagi bir epizotda qahramon ruhiy holati quyidagicha tasvirlanadi. “Klayd yana tanho qolib, bu xafagazak, ajoyib-g‘aroyib olamda nima qilarini bilmay, yolg‘izlikdan azob chekardi, go‘yo uni bu olamga kimlardir haydab kelib, ataylab tashlab ketishganga o‘xshardi. U bexosdan butun gavdasi bilan dag‘-dag‘ titray boshladi: bu g‘alati manzaraning jozibasi uni yaxdek muzlatib yuborgan edi. Xo‘sh, nima uchun u bu yerga keldi o‘zi? Nima qilishi kerak u? Robertani o‘ldirishi kerakmi? Yo‘q, yo‘q! U yana boshini egdi, ko‘m-ko‘k, kumushdek tovlanayotgan halqobning maftunkor va makkor qa‘ridan ko‘zlarini uzolmay qoldi, uning nazarida halqob o‘z shaklini o‘zgartirib, ulkan billur soqqaga aylanib borayotganga o‘xshardi. Ammo, qiziq, soqqa ichida nima qimirlayapti? Qandaydir bir tirik jon... ana, u yaqinlashib kelyapti, aniqroq ko‘rin-

yapti... u oxiri Robertani tanidi: Roberta oppoq, nozik qo‘llarini jon holatda suvda tapillatgancha Klaydga uzatmoqchi bo‘lyapti. E, xudo, dahshatku bu!”. Ushbu parchada Klayd obrazining ichki kolleziyasi, beqaror xarakteri, yolg‘izligi, umidsizligi va ma’naviy inqirozi ifodalangan.

4. BILLUR SOQQA: ILLUZIYA VA ESTETIK ALDOV. Ingliz adabiyotida billur shar kelajakni ko‘rish, bashorat, sehr-jodu va haqiqatni anglash ramzi hisoblanadi. Ushbu romanda esa yetib bo‘lmas boylik va soxta baxt ramzi sifatida aks ettiriladi. Ya’ni, Roberta va Klayd orasidagi ishqiy munosabat billur kabi go‘zal, jozibador biroq shon-shavkatga, osongina boylikka erishish, ijtimoiy pag‘onalardan ko‘tarilish yo‘lida u bir mo‘rt material edi xolos. Qolaversa, Sondra Finchlining kiborlar davrasida qilgan iliqqina munosabati, jonni o‘rtab yuboruvchi g‘amzali boqishlari va ahd-u paymoni Klayd irodasini bukib ichki olamini ostun-ustun qilib, hirs va nafs quliga aylanib oxir-oqibat jinoyatga qo‘l urishiga va qatl qilinishiga sabab bo‘ladi. “Amerika fojiasi” romanining ikkinchi qismi Klayd Grifits, Roberta Olden va Sondra Finchlilarning mojarolarini tilga oladi. Klayd va do‘stlari sakkiz yoshli

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



qizning o‘limiga sabab bo‘lganlaridan so‘ng qo‘rquv ustunlik qilib bari turli joylarga qochib qolishadi. Klayd yana mehmonxonada ishlay boshlaydi. Bir kuni uning hayotini tubdan o‘zgartiradigan voqea sodir bo‘ladi. Likurglik boyvachcha amakisi Samuel Grifits bilan uchrashadi va uning qo‘lida ishlay boshlaydi. Amakisining oilasi tomonidan sovuq qarshi olinishi, amakivachchasi uni yoqtirmasligini o‘zining kambag‘alligidan deb hisoblaydi. Zotan, Klaydning ijtimoiy maqomi Chikagoda va Kanzas-Sitida yugurdaklik sifatida mavjud ijtimoiy munosabatlar tomonidan belgilangan va u o‘zgarishsiz qolavergan. Ya’ni amakisining oilasi tomonidan ham xuddi shunday qabul qilingan. Klaydning Gilbert Grifits bilan muloqotlari kuzatilsa, uni qanchalik bu doiradan uzoqligi, qarindoshlarining unga nisbatan juda past nazar bilan qarashi, Gilbert uning bu yerga olib kelinishi xato qaror deb hisoblashi kuzatiladi. Endilikda Klayd ko‘chib o‘tgan yangi muhit amakivachchasi Gilbert kabi kishilar bilan to‘lib-toshgan, shu sababli ham u o‘zini Samuel Grifits oilasining a‘zosi sifatida ko‘ra olmaydi. Ayni paytda u Gilbertni shu doiraning katta bir bo‘lagi deb hisoblaydi, o‘sha doira tomon intiladi. Lekin Eysa Grifitsning qashshoq oilasida tug‘ilganligi bunga yo‘l bermasdi. Mana shu ichki ziddiyat mansabparastlik o‘chog‘ini alanga oldiradiki, bu ehtiyoj Klayddagi xarakter evolyutsiyasining bosh sababi sifatida ko‘zga tashlanadi.

Xulosa. Teodor Drayzer “Amerika fojiasi”da ramzlar tizimi orqali deterministik falsafani ilgari suradi. Kishan – insonni tutib turuvchi axloqiy chegara va ijtimoiy qonuniyatlar, beqaror tabiat insonning bu qonuniyatlar oldidagi ojizligidir. Billur soqqa esa asar so‘ngida obrazlarning fojiali qismatidan bashorat beradi. Klayd Grifits fojiasi – bu faqat bir shaxsning emas, balki ulkan orzular va cheklangan imkoniyatlar to‘qnashgan jamiyatning fojiasidir.

Adabiyotlar:

1. Dreiser, T. (1925). An American Tragedy. New York: Boni & Liveright.
2. Pizer, D. (1991). The Novels of Theodore Dreiser: A Critical Study. University of Minnesota Press.
3. Matthiessen, F. O. (1951). Theodore Dreiser. New York: William Sloane Associates.
4. Hussman, L. E. (1983). Dreiser and His Prophets. Macmillan.
5. Karimov, B. (2012). Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent.
6. Драйзер Т. Америка фожиаси. Икки жилдлик, II жилд (Русчадан Oktam Usmonov таржимаси). Тошкент, Ўқитувчи НМИУ, 2018. – Б.120

“O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH METODIKASINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



	Saydullayeva Shoira Kaxramoq qizi	
93.	NABI JALOLIDDINNING “OTA” HIKOYASINI VIZUAL VOSITALAR ORQALI O‘QITISH Mahmuda Sobitova	463
94.	O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL O‘QISH FAOLIYATIDA INGLIZ ADABIYOTI NAMUNALARINI TAHLIL QILISH USULLARI To‘g‘onova Dinoraxon Mansurjon qizi	467
95.	ADABIYOT O‘QITUVCHISI PROFESSIONALIZMI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY TALQIN Abduqodirova Madina Rustamxo‘ja qizi	471
96.	BADIIY ASARLARNI ESHITISH ASOSIDA TAHLIL QILISH USLUBLARI Asroriddin Saydazimov	476
97.	EKOLOGIK SUD: “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ROMANI MISOLIDA Dadabayeva Shohistaxon Zakirovna	479
98.	“NASOYIM UL-MUHABBAT” – BIR UMRLIK MA’NAVIY QO‘RIQCHI Norqulov Aziz O‘ktamqulovich,	485
99.	NORMUROD NORQOBILOV HIKOYALARIDA BOLA RUHIYATI TASVIRI Xayrullayev Azamat	490
100.	ALPOMISH TALQINLARIDA YANGICHA YONDASHUV O‘tkir Yo‘ldoshev	496
101.	TURKIY XALQLAR DOSTON VA RIVOYATLARIDA AFROSIYOBNING XARAKTERI Matquliyeva Marg‘uba Farxodovna	500
102.	O‘QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUVNING MOHIYATI Mambetaliyev Qayrat Anarbay o‘g‘li	505
103.	“AMERIKA FOJIASI” ROMANIDA BADIIY DETALLAR TIZIMI Normatov Rixsimurod Qo‘chqor o‘g‘li	510
104.	ZULLISONAYN SHOIR RUBOIYOTI (Ahmad Tabibiy ruboiylari badiiyati xususida) Raximova Saboxat Raxmonqulovna	513
105.	HAMID OLIMJON IJODIDA MILLIY RUH G‘ayrat Majidov	517
106.	E‘TIQOD MASALALARI “SIROJUL MUSLIMIN” VA “SABOTUL-OJIZIN” ASARLARI QIYOSIDA Kenjaboy Gulruh	523
107.	ARAB TILIDA SIFATLAR TALQINI MASALASI Nizomjon Qodirqulov	527